Norin Riverside Complex
Master reja

BUYURTMACHI
"NAMANGAN VILOYAT HOKIMLIGINING KAPITAL QURILISH SOHASIDA BUYURTMACHI XIZMATI" DUK

LOYIHACHI
Namangan Loyiha servis invest MCHJ

NAMANGAN VILOYATI, NORIN TUMANI "PAXTAKOR" MASSIVI HUDUDIDAGI 23,9 GEKTAR YER MAYDONIDA TURIZM ZONASI TASHKIL ETISH BO'YICHA "MASTER-REJA"SINI ISHLAB CHIQISH BO'YICHA HISOBOT





O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Shavkat Mirziyoyev

«Mamlakatimizning betakror tabiati,
go'zal dam olish zonalari imkoniyatlaridan foydalanib,
yangi turistik yo'nalishlar ochish mumkin.»

"Norin Riverside Complex" turistik zonasi master-rejasi Namangan viloyati Norin tumani "Paxtakor" massividagi Norin daryosi bo'yidagi 23,9 gektar hududni zamonaviy turizm va rekreatsiya maskaniga aylantirish uchun ishlab chiqilgan. Hudud 108 ta lotga (16,14 ga) ajratilib, 15 ta funksional guruhga birlashtirilgan.

Master-reja doirasida dam olish, turizm, savdo va xizmat ko'rsatish, umumiy ovqatlanish, sog'lomlashtirish hamda ko'ngilochar funksiyalar yagona tizimda tashkil etiladi. Davlat mablag'i hisobidan 7 ta jamoat obyekti — kirish zonasi, amfiteatr, bolalar maydonchasi, workout, kema-restoran, panoramali terrassa va qayiq sayri barpo etiladi.

Loyiha qariyb 262 mlrd so'm investitsiya jalb qilish, 560 dan ortiq doimiy ish o'rni yaratish hamda transport, muhandislik va ijtimoiy infratuzilmani 2027–2029-yillarda bosqichma-bosqich rivojlantirishni nazarda tutadi.

Loyihaning asosiy ko‘rsatkichlari

Norin Riverside Complex — loyiha pasporti

23,9 ga
Loyiha hududi (KMZ — 23,85 ga; TT da — 18,3 ga)

108 ta
Lot — 16,14 ga (hududning 67,5 %)

15 ta
Funksional guruh (lotlar bo'yicha)

7 ta
Davlat mablag'i hisobidan jamoat obyekti

≈ 262,2 mlrd
Investitsiya, so'm (xususiy 223,8 + davlat 38,4)

561 ta
Yangi doimiy ish o'rni

528 kishi
Bir vaqtda tunash sig'imi (dacha, kapsula, oilaviy uylar)

2027–2029
Amalga oshirish muddati (3 navbat)

Loyiha ma'lumotlari

Joylashuvi	Namangan viloyati, Norin tumani, "Paxtakor" massivi, Norin daryosining chap sohili
Buyurtmachi	"Namangan viloyat hokimligining kapital qurilish sohasida buyurtmachi xizmati" DUK
Loyihachi	Namangan Loyiha servis invest MCHJ
Hudud chegarasi	Daryo bo'yi bo'ylab 2,37 km, perimetri 5,16 km (KMZ bo'yicha)
Suv muhofaza zonasi	300–500 m (VMQ №981; Norin-Sirdaryo ITHB. 04.09.2024 y. №03-13/406-son xat)
Qurilish turi	Bir qavatli, yengil konstruksiyali inshootlar; lotlarda ko'kalamzorlashtirish ≥ 30 %
Asosiy funksiyalar	Oilaviy dam olish, glemping va dachalar, umumiy ovqatlanish, aquapark, sport, baliq ovi, madaniy tadbirlar

Hudud balansi

Ko'rsatkich	ga	%
Lotlar	16,14	67,53
Davlat obyektlari	1,01	4,25
Ko'kalamzor	2,22	9,28
Ichki yo'laklar	0,78	3,26
Salomatlik yo'lagi	1,19	4,97
Avtomobil yo'llari	2,56	10,71
Jami	**23,9**	**100**

Investitsiya, sig'im va ish o'rinlari — yiriklashtirilgan ko'rsatkichlar bo'yicha taxminiy hisob (batafsil — VI bob).

Mundarija

	Loyihaning asosiy ko'rsatkichlari	3
	Vazifalar. Kirish	5
I bob	**Norin tumani va master reja hududi joriy iqtisodiy-ijtimoiy holati**	**7**
	1.1–1.3 Joylashuv, transport aloqalari, kirish yo'llari	8
	1.4–1.8 Demografiya, iqtisodiyot, infratuzilma, tashqi savdo	11
	1.9–1.10 Hududni o'rganish, SWOT tahlili	16
II bob	**Hududning iqtisodiy rivojlantirish salohiyati va zahiralari**	**18**
	2.1–2.2 Iqlim, turistik salohiyat va maqsadli bozor	19
	2.3–2.4 Iqtisodiy drayverlar, strategik joylashuv	21
III bob	**Hududni rivojlantirish tasavvurlari va maqsadlari**	**23**
	3.1 Konseptual yo'nalishlar, maqsadli ko'rsatkichlar, bosqichlar	24
	3.2–3.4 Sohil, energiya, ekologik barqarorlik	25
IV bob	**Taklif etilayotgan investitsiya va infratuzilma loyihalari**	**28**
	4.1–4.4 Yo'l, velo va qayiq infratuzilmasi	29
	4.5–4.7 Chiqindilar, ijtimoiy infratuzilma	33
	4.8–4.12 KAF, ko'kalamzorlashtirish, kirish arkasi, lotlar tasnifi	36
V bob	**Yerdan foydalanish va master reja loyihasi**	**42**
	5.1 Yerdan foydalanish rejasi va hudud balansi	43
	5.2 Xalqaro tajriba	44
	5.3 Hududning 3D ko'rinishi	49
	5.4–5.6 Konsepsiya, muhandislik yuklamalari, investitsiyalar	58
VI bob	**Yer uchastkalarining lot pasportlari va davlat takliflari**	**61**
	Bosh reja, hudud balansi, lotlar reestri, 108 ta lot pasporti	62
	Davlat takliflari (D-1…D-7), auksion navbatlari va shartlari, xulosa	176

Vazifalar

1. Hududning joriy iqtisodiy-ijtimoiy holati boʻyicha tahlil.

2. Hududning iqtisodiy rivojlantirish salohiyati va zaxiralari.

3. Hududni rivojlantirish tasavvurlari va maqsadlari.

4. Taklif etilayotgan investitsiya va infratuzilma loyihalari roʻyxatini shakllantirish.

5. Yerdan foydalanish va master-reja loyihasi.

6. Yer uchastkalarining (lotlarning) pasportlarini shakllantirish.

Kirish

Namangan viloyati Norin tumani "Paxtakor" massividagi turistik zona Norin daryosining sohilida joylashgan bo'lib, tabiiy landshaft va mavjud ekotizim bilan uyg'un rivojlantirish uchun qulay hudud hisoblanadi. Texnik topshiriqda hudud 18,3 gektar etib belgilangan; chegarani joyida aniqlash jarayonida u 23,9 gektargacha kengaytirildi va barcha hisob-kitoblar shu maydon bo'yicha olib borildi.

Master-rejaning asosiy vazifasi — 23,9 gektar loyiha hududining turistik va rekreatsion imkoniyatlaridan samarali foydalanish, tabiiy muhitni saqlagan holda zamonaviy dam olish, xizmat ko'rsatish va sog'lomlashtirish infratuzilmasini shakllantirishdan iborat. Master-reja hududning funksional tarkibi va bosqichma-bosqich rivojlanish tamoyillarini belgilaydi. Loyiha doirasida xiyobonlar, turistik va sog'lomlashtirish obyektlari, dachalar va kapsula uylari, ko'ngilochar maskanlar, savdo va umumiy ovqatlanish obyektlari, oilaviy dam olish maskanlari hamda sport maydonlari o'zaro bog'langan yagona tizim sifatida tashkil etiladi.

Hudud 108 ta lotga (16,14 ga, 67,5 %) ajratilgan; lotlar auksion orqali xususiy investorlarga uch navbatda (2027–2029) taklif etiladi. Davlat mablag'i hisobidan 7 ta jamoat obyekti barpo etiladi. Jami qariyb 262 mlrd so'm investitsiya jalb qilinib, 560 dan ortiq doimiy ish o'rni yaratiladi.

Norin-Sirdaryo irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasining xatiga ko'ra, Norin daryosining suv muhofaza zonasi VMQ 981-son qarori asosida 300–500 m ni tashkil etadi. Shu sababli hududda faqat bir qavatli, yengil konstruksiyali inshootlar joylashtiriladi, oqova suvlar lokal tozalash inshootlarida tozalanadi. Daryo qirg'oqlarini mustahkamlash, sel va toshqin xavfini kamaytirishga qaratilgan muhandislik yechimlari orqali hududning xavfsiz va barqaror rivojlanishi ta'minlanadi.

I bob

NORIN TUMANI VA MASTER REJA
HUDUDI JORIY IQTISODIY – IJTIMOIY HOLATI

1.1 Master reja hududining geografik joylashuvi va chegaralari

Namangan viloyatining Respublikadagi joylashuvi




Norin tumanining Namangan viloyatidagi joylashuvi





1.2 Master reja hududiga transport orqali yetib borish sxemasi



Shartli belgilar:

- Avtomobil yo'li
- Temir yo'li
- Havo transporti yo'li

O'zbekiston Respublikasining hududlaridan avtomobil yo'llari orqali kelib-ketish uchun sarflanadigan vaqt hamda masofa:

Toshkent	5 soat 17 daqiqa	279 km
Angren	3 soat 16 daqiqa	180 km
O'sh (Qirg'iz R.)	3 soat	128 km

1.3 Master reja hududining transport infratuzilmasi va kirish yo'llari sxemasi

Master reja hududi atrofidagi yo'llar

- Master reja hududi
- Asosiy yo'l
- II-darajali yo'l
- Norin daryosi



1.4 Norin tumanining hududiy-demografik ko'rsatkichlari va yer fondi tarkibi


Namangan viloyati
umumiy maydoni
7 440 km²

Namangan viloyati
aholi soni
3 213,6 ming kishi

Norin tumani
umumiy maydoni
207 km²

Norin tumani
aholi soni
182,7 ming kishi

NORIN TUMANI YER FONDI



UMUMIY MAYDONI
20 700 ga
207 km²

Yerdan foydalanish tarkibi

Norin tumani 2026-yil II chorak

Qishloq xo'jaligi yerlari	11 857 ga	(57,3%)
Qolgan yer toifalari	8 843 ga	(42,7%)

Norin tumani Namangan viloyati hududining 2,8 foizini egallagan bo'lsa-da, viloyat aholisining qariyb 5,7 foizi ushbu tumanda istiqomat qiladi. Natijada tumanda aholi zichligi 1 km² ga taxminan 883 kishini tashkil etib, viloyat o'rtacha ko'rsatkichidan qariyb ikki baravar yuqori. Tuman yer fondining 11 857 gektari yoki 57,3 foizi qishloq xo'jaligi yerlariga to'g'ri kelishi hududning agrar ixtisoslashuvini ko'rsatadi. Qolgan 8 843 gektar maydon aholi punktlari, infratuzilma, suv fondi va boshqa yer toifalarini qamrab oladi.

1.5 Norin tumanining ijtimoiy-demografik va iqtisodiy rivojlanish ko‘rsatkichlari

Norin tumani | **182,7** ming kishi

54 ta mahalla | **48 829** xonadon

Norin tumani
ijtimoiy-demografik ko‘rsatkichlari
2025-2026

Gender tarkibi
2025-yil 1-oktyabr



- Erkaklar — 92,4 ming
- Ayollar — 89,0 ming

Xonadon va oilalar tarkibi
2026-yil II chorak

48 829 xonadon | **36 086** oila

Hisobiy xonadon sig‘imi — 3,74 kishi

Asosiy iqtisodiy tarmoqlar
2026-yil I yarim yillik, mlrd so‘m

Qishloq xo‘jaligi	1 155,1	105,2%
Xizmatlar	712,5	120,6%
Sanoat	277,2	116,1%

O‘sish sur’atlari o‘ng tomonda ko‘rsatilgan

Mehnat resurslari tarkibi
2026-yil II chorak, ming kishi



- Bandlar — 67,9
- Ishsizlar — 3,7
- Iqtisodiy nofaol — 22,1


Ishsizlik darajasi — 4,4%

Norin tumani iqtisodiy bazasi
2026-yil II chorak

2 020 ro‘yxatga olingan | **1 291** faoliyat ko‘rsatayotgan | ⊥18 yangi

Faollik darajasi — 63,9%


Norin tumani doimiy aholisi dinamikasi
ming kishi



Aholi zichligi	883 kishi/km²
Xonadon sig‘imi	3,74 kishi

Tuzilgan nikohlar	759 ta
Ajralishlar	194 ta
Ajralish / nikoh nisbati	25,6%
2025-yil migratsiya qoldig‘i	-131

1.6 Norin tumanida bandlik, tadbirkorlik, daromad va uy-joy ta’minoti ko‘rsatkichlari














Xonadonlar soni **48 829**
Norin tumani, 2026-yil

Yakka tartibdagi uy-joylar **35,7 ming**
Uy-joy fondining asosiy qismi

Aholi jon boshiga uy-joy maydoni **17,6 m²**
Ko‘p qavatli uylar — 55 ta


1.7 Norin tumanining ijtimoiy va muhandislik-kommunikatsiya infratuzilmasi holati

1. Hududiy va jamoat infratuzilmasi ko‘rsatkichlari

Ko‘rsatkich	Rasmiy qiymat	Manba va mazmun
Ma’muriy hudud maydoni	**207 km²**	Namangan viloyati pasporti, 2026-yil II chorak
Doimiy aholi	**182,7 ming**	Norin tumani bo‘yicha doimiy aholi soni
Madaniyat va istirohat bog‘lari	**2 ta**	Bog‘lar maydoni hujjatda ko‘rsatilmagan
Sport inshootlari	**193 ta**	Bir vaqtning o‘zida 8,3 ming kishiga mo‘ljallangan
Kutubxonalar	**3 ta**	Jami sig‘imi — 300 o‘rin
Madaniy meros obyektlari	**3 ta**	Ijtimoiy infratuzilma ko‘rsatkichi

2. Muhandislik-kommunikatsiya tarmoqlari

Tarmoq turi	Uzunligi	Qamrov / izoh
Elektr tarmog‘i	**1 100 km**	Hududdagi eng katta tarmoq
Avtomobil yo‘llari	**675 km**	Yo‘llarning umumiy uzunligi
Ichimlik suvi	**469 km**	Aholining 78,3% qamrab olingan
Aloqa kabeli	**402 km**	Telekommunikatsiya tarmog‘i
Oqova suv	**7,8 km**	Tarmoq uzunligi cheklangan
Tabiiy gaz	**0 km**	Hudud 100% suyultirilgan gaz bilan ta’minlanadi



1.8 Norin tumanining eksport-import ko'rsatkichlari va tashqi savdo balansi


TASHQI SAVDO AYLANMASI
27,4 mln
2024-yilga nisbatan-33,1%

EKSPORT
5,1 mln
O'sish sur'ati 26,7% (-73,3%)


IMPORT
22,3 mln
O'sish sur'ati 102,0% (+2,0%)

SAVDO BALANSI
-17,2 mln
Eksport importning 22,9%ini qoplaydi


Eksport va import hajmi



Eksport tarkibi, %



Import tarkibi, %



Asosiy eksport bozorlari: Rossiya 28,7% • Pokiston 28,6% • Qirg'iziston 16,0% • Tojikiston 13,9%

Import eksportdan 4,4 baravar yuqori va savdo balansi -17,2 mln dollarni tashkil etadi. Eksportning 80,6 foizi oziq-ovqat mahsulotlariga, importning 89,0 foizi sanoat mahsulotlariga to'g'ri keladi. Eksportni diversifikatsiya qilish uchun qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlash, qadoqlash, mahalliy brendlar va turizm bilan bog'langan savdo kanallarini rivojlantirish zarur.

1.9 Hududni o'rganish jarayoni va loyiha takliflari muhokamasi















1.10 SWOT tahlili

S Kuchli tomonlar

- Qishloq xo'jaligi hajmi 1,696 trln so'm: xomashyo va mahalliy mahsulotlar bazasi mavjud.
- Investitsiyalar 1,846 trln so'm (+72,3 %); mablag'larning 99 foizi markazlashmagan manbalardan.
- Bozor xizmatlari 891,3 mlrd so'm (+15,4 %); savdo va transport xizmatlari yetakchi.
- 182,7 ming aholi, 675 km yo'l va 1 100 km elektr tarmog'i hududiy tayanch yaratadi.
- Daryo bo'yi bo'ylab 2,4 km uzluksiz sohil — noyob landshaft va suv manzarasi.

W Zaif tomonlar

- Eksport 5,1 mln dollar, import 22,3 mln dollar: import eksportdan qariyb 4,4 baravar yuqori.
- Yashash va ovqatlanish xizmatlari ulushi atigi 1,3 %; sog'liq 0,6 % va muhandislik xizmatlari 0,1 %.
- Ichimlik suvi qamrovi 78,3 %; oqova tarmog'i 7,8 km, tabiiy gaz tarmog'i mavjud emas.
- Migratsiya saldosi −131 kishi; yosh va malakali kadrlarni ushlab qolish cheklangan.
- Hudud suv muhofaza zonasida — faqat yengil, bir qavatli qurilishga ruxsat beriladi.

O Imkoniyatlar

- 23,9 ga "Paxtakor" daryo bo'yi hududida oilaviy turizm, rekreatsiya va sog'lomlashtirishni rivojlantirish.
- Qishloq xo'jaligi bazasida agro- va gastronomik turizm, mahalliy mahsulot brendlarini yaratish.
- Savdo-transport salohiyatida yo'lbo'yi xizmatlari, tashrif logistikasi va umumiy ovqatlanishni kengaytirish.
- Investitsiya va kichik biznes orqali mehmonxona, hunarmandchilik, festival va servis loyihalarini yo'lga qo'yish.
- 108 ta lot orqali ≈ 224 mlrd so'm xususiy investitsiya va 561 ta ish o'rni.

T Tahdidlar

- Daryo qirg'og'ida suv sathi o'zgarishi, toshqin va qirg'oq yemirilishi xavfi mavjud.
- Suv-oqova va kommunal cheklovlar xizmat sifati hamda hududning ekologik sig'imini pasaytirishi mumkin.
- Importga qaramlik loyiha xarajatlarini narx va logistika tebranishlariga bog'laydi.
- Kadrlar migratsiyasi, raqobat va loyihalarning kechikishi iqtisodiy samarani susaytirishi mumkin.
- Mavsumiylik: tashrif oqimi asosan bahor–kuz oylariga to'planadi.

II bob

HUDUDNING IQTISODIY RIVOJLANTIRISH SALOHIYATI VA ZAHIRALARI

2.1 Geografik joylashuvi va iqlim

Geografik joylashuvi
Tuman Andijon viloyati bilan 62 km, Namangan tumani bilan 8,3 km, Uychi tumani bilan 15,7 km hamda Uchqo'rg'on tumani bilan 54,9 km masofada chegaradosh. Bunday joylashuv Norin tumanining Namangan va Andijon viloyatlari o'rtasidagi hududiy, iqtisodiy va transport aloqalarida muhim o'rin tutishini ko'rsatadi.Tuman markazidan Namangan shahrigacha bo'lgan masofa taxminan 40 km, Andijon shahrigacha 80 km, Farg'ona shahrigacha 110 km va Toshkent shahrigacha 322 kmni tashkil etadi. Ushbu transport imkoniyatlari "Paxtakor" massividagi turizm zonasiga nafaqat tuman aholisi, balki qo'shni hududlardan ham tashrif buyuruvchilarni jalb qilish uchun qulay sharoit yaratadi.

Tabiati
Norin tumani Farg'ona vodiysining sharqiy qismida, Farg'ona tizmasi etaklariga tutash hududda joylashgan. Relyefi asosan past-baland tekisliklardan iborat bo'lib, mutlaq balandligi ayrim joylarda 600–800 metrni tashkil etadi. Hududning geologik tuzilishida gil, ohaktosh, mergel, konglomerat va lyoss qatlamlari uchraydi. Tekis relyef dehqonchilik, aholi punktlarini rivojlantirish hamda transport va muhandislik infratuzilmasini joylashtirish uchun qulay hisoblanadi.

Iqlimi
Tuman iqlimi quruq kontinental bo'lib, yozi issiq va quruq, qishi esa sovuq kechadi.
Yanvar oyining o'rtacha harorati −6 °C, iyul oyida esa +27 °C atrofida bo'ladi. Yillik yog'in miqdori o'rtacha 190–215 mm ni,vegetatsiya davri esa qariyb 233 kunni tashkil etadi. Uzoq davom etadigan iliq mavsum paxta, g'alla, sabzavot, poliz, meva va uzum yetishtirish uchun qulay imkoniyat yaratadi.

Ekin maydonlari
Sug'oriladigan yerlarda paxta, g'alla, sabzavot, poliz mahsulotlari, meva, uzum va yem-xashak ekinlari yetishtiriladi. Bog'dorchilik, chorvachilik va pillachilik ham rivojlangan.
Sho'rlanish kuzatiladigan hududlar mavjud.

Tuproqlari
Asosan och tusli bo'z tuproqlar va allyuvial daryo bo'yi tuproqlaridan iborat.
Ular sug'orish tizimi orqali yuqori unumdorlikka ega bo'lib, paxtachilik, g'allachilik, sabzavotchilik va bog'dorchilik uchun qulay sharoit yaratadi.

O'simliklari
Qamish, ajriq, pechak, sho'ra, shuvoq kabi cho'l-dasht o'simliklari uchraydi.


Yovvoyi hayvonlari
Tumanda tulki, quyon, yumronqoziq, ondatra va mayda kemiruvchilar uchraydi.
Suv havzalarida sazan, laqqa va cho'rtan kabi baliqlar, shuningdek, yovvoyi o'rdak, laylak, qaldirg'och, bulbul va boshqa qushlar mavjud.

Namangan viloyatining Respublikadagi joylashuvi



Norin tumanining Namangan viloyatidagi joylashuvi





2.2 Hududning turistik salohiyati, maqsadli bozori va rivojlanish imkoniyatlari


Hududiy talab bozori va qamrovi

2026-yil II chorak

Bozor	Aholi	Loyihadagi roli
Norin tumani	182,7 ming	asosiy kunlik
Namangan shahri	**392,8 ming**	~40 km / 30 daq
Namangan viloyati	**3 213,6 ming**	mintaqaviy

Turizm qo'llab-quvvatlovchi xizmatlar bazasi

2025-yil yanvar-sentabr, jami xizmatlardagi ulushi



Maqsadli hududiy va xalqaro tashrif bozori

Norin-Namangan	oilaviy bir kunlik dam
Andijon-Farg'ona	hafta oxiri tashrif
Qirg'iziston (O'sh)	gastro va eko tur
Qozog'iston	avtotur va oilaviy guruhlar
Tojikiston	madaniy=gastronomik tur
Turkmaniston	turpaketlar

Turizm qo'llab-quvvatlovchi xizmatlar bazasi


Bahor	sayr • agrofestival • sport
Yoz	daryo bo'yi dam olish • kemping • oilaviy hordiq
Kuz	hosil yarmarkasi • gastronomiya • tadbirlar
Qish	sog'lomlashtirish • ovqatlanish • kichik tadbirlar

Norin daryo bo'yi hududi uchun strategik javob

1-2 KUNLIK MAHSULOT	**oilaviy va hafta oxiri paket**
QISQA YO'L SAFARI	**transport + ovqat + hordiq**
FARQLANUVCHI TAKLIF	**daryo, agro - gastro va rekreatsiya**
MAQSADLI MARKETING	**Namangan, Andijon, Farg'ona va Osh**

O'zbekiston fuqarolarining xorijga turistik safarlari

(ming kishi)



Asosiy tahlil

7 559,7	**2025 - yildagi rekord hajm**
+22,2%	**2024 / 2025 bir yillik barqaror o'sish**

2.3 Master reja hududining iqtisodiy drayverlari va hududiy rivojlanish salohiyati

Norin tumanining asosiy iqtisodiy drayverlari

Qishloq xo'jaligi

1 155,1 mlrd so'mlik mahsulot va 11 857 ga qishloq xo'jaligi yeri tuman iqtisodiyotining eng katta ishlab chiqarish bazasidir.
Meva-sabzavot, chorvachilik va agroqayta ishlash qiymat zanjirini kengaytirish asosiy imkoniyat hisoblanadi.

Sanoat

2026-yil II chorakda 277,2 mlrd so'mlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarildi (+16,1%). Tumanda yirik sanoat korxonasi yo'q, biroq 373 ta kichik korxona va 5 ta sanoat zonasi o'sishning tarqoq bazasini shakllantiradi.

Xizmatlar va savdo

Bozor xizmatlari hajmi 712,5 mlrd so'mga yetib, 20,6% o'sdi. 8 ta bozor va savdo kompleksi ichki talab, chakana savdo, ovqatlanish va turizm xizmatlarini rivojlantirish uchun tayanchdir.

Turizm

Norin daryosi bo'yidagi 23,9 ga "Paxtakor" hududi oilaviy dam olish, agro-gastronomiya va rekreatsiya uchun yangi drayverdir. Turizm mahalliy mahsulot va xizmatlarga multiplikativ talab yaratishi mumkin.

Norinning iqtisodiy rivojlanishi uchun potensial va resurslar

Norinning iqtisodiy salohiyati tabiiy resurs, mehnat bozori va hududiy aloqalarning birlashishiga tayanadi. Amaldagi ko'rsatkichlar qishloq xo'jaligi va xizmatlar yetakchi ekanini, investitsiya oqimi esa sanoat hamda turizmni tezlashtirish imkonini berishini ko'rsatadi.

Ustuvor vazifa — agroqayta ishlash, savdo, gastronomiya va daryo bo'yi turizmini yagona qiymat zanjiriga bog'lash.

> **Norin daryo bo'yi turizm zonasi mahalliy mahsulotni tashrif buyuruvchi xarajatiga aylantiruvchi yangi iqtisodiy tugun bo'lishi mumkin.**

Asosiy potensial omillari

182,7 ming aholi va 93,8 ming mehnat resursi xizmatlar bozori uchun barqaror talab bazasini yaratadi.

Andijon bilan 62 km chegara va 675 km avtomobil yo'li yaqin hududlardan qisqa muddatli tashriflarni jalb etish imkonini oshiradi.

1 846 mlrd so'mlik investitsiyaning 54,9%i xorijiy investitsiya va kreditlar hissasiga to'g'ri keladi.
Norin tumani statistik axborotnomasi, 2025-yil yanvar–sentabr.

2.4 Master reja hududining strategik joylashuvi va iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanish imkoniyatlari

Hududning joylashuvi

"Norin Riverside Complex" master reja hududi Namangan viloyati Norin tumani, Norin daryosi bo'yida joylashgan. Daryo bo'yi landshafti, mavjud avtomobil yo'llari hamda rejalashtirilgan savdo, gastronomiya, joylashtirish va rekreatsiya obyektlari hududni oilaviy dam olish va qisqa muddatli turizm markazi sifatida rivojlantirish imkonini beradi.

- Loyiha hududi: Norin tumani, "Paxtakor" massivi, Norin daryosi bo'yi
- Asosiy tabiiy element: daryo va qirg'oqbo'yi landshafti
- Namangan shahri bilan aloqa: taxminan 40 km / 30 daqiqa
- Hududiy bog'lanish: tumandagi 675 km avtomobil yo'llari va Andijon viloyati bilan 62 km chegaradoshlik
- Yaqin turizm bozorlari: Norin, Namangan, Andijon va Farg'ona; istiqbolli tashqi bozor - Osh, Qozog'iston, Tojikiston

Iqtisodiy-tijoriy imkoniyatlar

Yo'nalish	Imkoniyat tavsifi	Rivojlanish istiqbollari
Savdo va xizmat sohasi	Norinning doimiy aholisi hamda kunlik va oilaviy tashriflar ichki talabni shakllantiradi.	Savdo-maishiy xizmatlar, suvenir va mahalliy mahsulot savdosi, kundalik servis nuqtalarini rivojlantirish.
Turizm va dam olish	Norin daryosi, qirg'oqbo'yi landshafti va Andijon - Farg'ona dam olish bozori mavsumiy talab yaratadi.	Promenad, aquapark, sport, piknik, salomatlik - velo yo'laklari, qayiq bekati va mavsumiy tadbirlar.
Gastronomiya va joylashtirish	Yashash va ovqatlanish xizmatlarining 1,3% ulushi turizm servisida bozor bo'shlig'i mavjudligini ko'rsatadi.	Milliy taomlar restorani, baliq markazi, daryo bo'yi ovqatlanish nuqtalari, dachalar va kapsulali turar joylar.
Transport va hududiy aloqa	675 km yo'l tarmog'i va Andijon bilan chegaradoshlik hududni tumanlararo hamda viloyatlararo oqimga bog'laydi.	Xavfsiz kirish, avtoturargoh, elektromobil zaryadlash, velo -samokat ijarasi, navigatsiya va tashkiliy tur yo'nalishlari.
Investitsiyava **bandlik**	93,8 ming mehnat resursi va 1 846,0 mlrd so'mlik investitsiya faolligi yangi xizmatlarni qo'llab -quvvatlaydi.	Lotlar asosida bosqichma-bosqich rivojlantirish, kichik biznesni jalb qilish va turizm -servis ish o'rinlarini yaratish.

Strategik ustunliklar

- Daryo bo'yi landshafti hududning asosiy turistik mahsulotiga aylanadi.
- Namangan shahriga 40 km yaqinlik kunlik va dam olish kunlari oqimini qo'llab-quvvatlaydi.
- Andijon-Farg'ona bozori va Osh yo'nalishi hududning tashrifchilar bazasini kengaytiradi.
- Turli funksiyalarning jamlanishi tashrif davomiyligi va mahalliy xarajatlarni oshiradi.

Xulosa

Norin daryo bo'yi hududi savdo, gastronomiya, joylashtirish, sport va rekreatsiyani yagona xizmatlar tizimiga birlashtiruvchi tuman miqyosidagi turizm klasteri sifatida rivojlantirilishi mumkin. Ustuvor shartlar - xavfsiz transport kirishi, qirg'oqni muhofaza qilish, muhandislik tarmoqlarini tayyorlash va loyihalarni bozor talabi asosida bosqichma-bosqich amalga oshirish.

III bob

HUDUDNI RIVOJLANTIRISH TASAVVURLARI VA MAQSADLARI

3.1 Master reja hududini rivojlantirishning konseptual yo'nalishlari va maqsadli ko'rsatkichlari

Norin Riverside Complex master reja hududini rivojlantirishning asosiy maqsadi — Norin daryosi bo'yidagi tabiiy-landshaft salohiyatidan oqilona foydalanish, turizm va rekreatsiya xizmatlarini barqaror rivojlantirish hamda mahalliy aholi uchun yangi ish o'rinlarini yaratishdan iborat. Konsepsiyada daryo bo'yi ekotizimini muhofaza qilish, yashil infratuzilmani shakllantirish va turistik obyektlarni yagona xizmatlar tizimiga birlashtirish ustuvor yo'nalish sifatida belgilangan.

Rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari

- Daryo bo'yi rekreatsiyasi va oilaviy turizm
- Gastronomik va agroturizm yo'nalishlari
- Dachalar, kapsulali uylar, glemping obyektlari
- Aquapark, sport, piknik va ko'ngilochar hududlar
- Promenad, salomatlik va velosiped yo'laklari
- Savdo, ovqatlanish va maishiy xizmat tarmoqlari
- Yo'l, avtoturargoh, elektr, suv va aloqa infratuzilmasi
- Qirg'oqni mustahkamlash, suv toshqini xavfsizligi
- Mahalliy tadbirkorlik va aholi bandligini oshirish

Maqsadli ko'rsatkichlar (2029-yil yakuni)

Jalb qilinadigan investitsiya	≈ 262,2 mlrd so'm (xususiy 223,8, davlat 38,4)
Yangi doimiy ish o'rinlari	561 ta (mavsumiy bilan — 800 tagacha)
Tunash sig'imi	528 kishi bir vaqtda
Umumiy ovqatlanish	≈ 1 530 o'rin (restoranlar, choyxona, kema-restoran)
Bir vaqtdagi tashrif sig'imi	≈ 7 167 kishi
Yillik tashrif (taxminiy)	≈ 400–450 ming kishi
Ko'kalamzorlik	≈ 7,1 ga (umumiy ko'kalamzor + lotlarning 30 %) — 29,5 %
Yo'l-yo'lak tarmog'i	Avtoyo'l 3,7 km, ichki yo'lak 1,7 km, salomatlik yo'lagi 2,64 km

Bosqichma-bosqich amalga oshirish rejasi


Bosqich	Muddat	Asosiy ishlar	Obyektlar / lotlar	Investitsiya, mlrd so'm	Natija
0. Tayyorgarlik	2026-yil IV chorak	Loyiha-smeta hujjatlari, chegaralarni joyida belgilash, qirg'oqni mustahkamlash loyihasi, muhandislik tarmoqlariga texnik shartlar	—	—	Ruxsat hujjatlari, auksionga tayyor lotlar
1-navbat	2027	Hududni tekislash, qirg'oq va dambalar, asosiy yo'l, elektr va suv tarmoqlari; davlat obyektlari (D-1…D-7)	12 ta lot + 7 ta davlat obyekti	93,4	Kirish zonasi, promenad va tayanch xizmatlar ishga tushadi
2-navbat	2027–2028	Dachalar, kapsulalar, aquapark, sport va tibbiy obyektlar qurilishi	59 ta lot	100,7	Asosiy dam olish va turar joy fondi
3-navbat	2028–2029	Sharqiy qism: kapsulalar, baliq markazi, oilaviy dam olish maskani; yakuniy obodonlashtirish	37 ta lot	68,1	Majmua to'liq foydalanishga topshiriladi

3.2 Daryo bo'yi hududini obodonlashtirish va xavfsiz qirg'oq infratuzilmasini shakllantirish

Sohilbo'yi hududini obodonlashtirish va xavfsiz qirg'oq infratuzilmasi:

Sohilbo'yi qismida qirg'oq mustahkamlanib, uzluksiz piyoda va velosiped yo'laklari tashkil etiladi. Promenad bo'ylab dam olish maydonchalari, o'rindiqlar, himoya to'siqlari, yoritish va navigatsiya elementlari joylashtiriladi.
Tabiiy tosh va muhandislik konstruksiyalari yordamida xavfsiz hamda daryo manzarasiga ochilgan jamoat makoni shakllantiriladi.





Sohilbo'yi landshaftini estetik shakllantirish:

Landshaft yechimlari daryo manzarasini ochib berish, soyali dam olish joylarini yaratish va hududning yil davomida jozibadorligini ta'minlash tamoyillari asosida ishlab chiqiladi. Promenad, bolalar maydonchalari, sport zonalari va avtoturargohlar bo'ylab daraxt, buta, gulzor hamda yer qoplovchi o'simliklardan iborat ko'p qatlamli yashil tizim shakllantiriladi





3.3 Energiya tejamkorligi, ekologik transport va chiqindilarni barqaror boshqarish

Energiya tejamkorligi va ekologik transport:

Dachalar, kapsulali uylar, restoranlar va xizmat ko'rsatish obyektlarida quyosh panellari, LED yoritish hamda energiyani avtomatik boshqarish tizimlari qo'llaniladi.
Avtoturargohlarda quyosh panelli soyabonlar va elektromobillarni quvvatlash nuqtalari tashkil etiladi.
Hudud ichida piyoda, velosiped, samokat va kichik elektr transport vositalariga ustuvorlik beriladi.





Aylanma iqtisodiyot va chiqindilarni boshqarish:

Hududda chiqindilarni alohida yig'ish, biologik chiqindilarni kompostlash, chiqindi qutilari dam olish maydonlari va xizmat ko'rsatish obyektlari yaqinida joylashtiriladi. Restoran va savdo nuqtalarida bir martalik plastik mahsulotlardan foydalanish bosqichma-bosqich kamaytiriladi.





3.4 Daryo bo'yi landshaftini ekologik barqarorlashtirish va yashil infratuzilmani rivojlantirish

Norin daryosi bo'yida turistik infratuzilmaning rivojlanishi qirg'oq yemirilishi, yozgi issiqlik, chang, yuzaki suv oqimlari va tungi yoritishning tabiiy ekotizimga ta'siri kabi masalalarni hisobga olishni talab qiladi. Shu sababli hududda tabiatga asoslangan, suvni tejaydigan va uzoq muddat xizmat qiladigan yashil infratuzilma tizimini shakllantirish taklif etiladi.






Qirg'oqni bioinjenerlik asosida mustahkamlash — yemirilishga moyil qismlarda mahalliy namsevar o'simliklar, ildizi kuchli butalar, biologik matlar va tabiiy toshlardan foydalaniladi.
Qirg'oq bo'ylab uzluksiz yashil himoya tasmasi shakllantirilib, u daryo bilan qurilish obyektlari o'rtasida tabiiy bufer vazifasini bajaradi. Bunday yechim qirg'oqni barqarorlashtirish bilan birga, hududning tabiiy ko'rinishini ham saqlab qoladi.

Soyali yashil marshrutlar — promenad, dam olish maydonlari, bolalar va sport zonalari o'zaro daraxtzor piyoda yo'laklari orqali bog'lanadi. Daraxt, buta va yer qoplovchi o'simliklardan tashkil topgan uch qatlamli ko'kalamzorlashtirish yozgi haroratni pasaytiradi, chang va shamol ta'sirini kamaytiradi. O'rindiqlar va dam olish nuqtalari tabiiy soyali hududlarda joylashtiriladi.

Qo'shimcha yechimlar

Aqlli sug'orish tizimi — tuproq namligini o'lchovchi sensorlar, tomchilatib sug'orish va o'simlik atrofini mulchalash orqali suv sarfi kamaytiriladi.




Chang va shamoldan himoyalovchi yashil to'siqlar — avtomobil yo'llari va avtoturargohlar bo'ylab bir necha qatordan iborat daraxt-buta tasmalari tashkil etiladi.




Mahalliy o'simliklar bog'i — hududga mos ko'p yillik gullar va xushbo'y o'simliklardan foydalanilib, asalarilar va kapalaklar uchun kichik ekologik yashash muhiti yaratiladi.





IV bob

TAKLIF ETILAYOTGAN INVESTITSIYA LOYIHALARI

4.1 Norin daryosining 2,6 km qismida tasdiqlangan sohilbo‘yi turizm infratuzilmasi loyihasi

Tasdiqlangan loyiha doirasida Norin daryosining 2,6 km uzunlikdagi qismida qirg‘oqni mustahkamlash, piyoda va velosiped yo‘laklari, yoritish tizimi, dam olish maydonlari hamda sohilbo‘yi obodonlashtirish elementlarini tashkil etish belgilangan.
Mazkur yechimlar “Norin Riverside Complex” master-rejasining transport va rekreatsiya tizimi bilan integratsiya qilindi.



4.2 Daryo bo‘yi asosiy yo‘l infratuzilmasini rivojlantirish

Norin Riverside Complex hududidan 2,6 km uzunlikdagi asosiy avtomobil yo'li o'tadi.
Master reja doirasida ushbu yo'l hududning asosiy transport o'qi sifatida shakllantirilib, turistik, rekreatsion va xizmat ko'rsatish obyektlari bilan qulay transport aloqasini ta'minlash ko'zda tutiladi.
Yo'l bo'ylab xavfsiz kirish-chiqish nuqtalari, piyodalar o'tish joylari, tashqi yoritish va yo'l belgilari tashkil etiladi. Transport va piyodalar harakatini tartibga solish orqali daryo bo'yi hududida xavfsiz, qulay va uzluksiz harakatlanish tizimi shakllantiriladi.





Master reja hududi chegarasi

Avtomobil yo'lagi



4.3 Daryo bo'yi velosiped infratuzilmasini rivojlantirish

Norin daryosi bo'ylab 2,4 km uzunlikdagi uzluksiz velosiped yo'lagi tashkil etish ko'zda tutiladi.Loyiha doirasida velosipedchilar
uchun xavfsiz va qulay harakatlanish muhiti yaratilib, yo'lak daryo bo'yidagi asosiy dam olish va rekreatsiya hududlari bilan bog'lanadi.Yo'nalish bo'ylab zarur yo'l belgilari, navigatsiya elementlari va himoya vositalari o'rnatiladi.Velosiped yo'lagining piyodalar va transport harakati bilan kesishadigan qismlarida xavfsiz o'tish nuqtalari tashkil etiladi.Dam olish nuqtalarida velosiped turargohlari va qisqa muddatli to'xtash maydonchalari joylashtiriladi.Mazkur yo'lak daryo bo'yi hududida ekologik toza transportni rivojlantirish hamda rekreatsion hududlar o'rtasidagi qulay va uzluksiz aloqani ta'minlashga xizmat qiladi.





Master reja hududi chegarasi

Velosiped yo'lagi



4.4 Daryo bo‘ylab qayiqda sayr yo‘nalishi va to‘xtash nuqtalari

Master reja doirasida daryo bo'ylab hududning tabiiy landshafti va mavjud suv oqimidan samarali foydalanishga qaratilgan qayiqda sayr yo'nalishi tashkil etish taklif etiladi. Ushbu yo'nalish tashrif buyuruvchilarga sohilbo'yi manzaralaridan bahramand bo'lish, hududni suv orqali tomosha qilish va sokin rekreatsion dam olish imkoniyatini yaratadi.
Yo'nalish bo'ylab xavfsiz tushish-chiqish punktlari, dam olish maydonchalari hamda zarur navigatsiya va xavfsizlik elementlari ko'zda tutiladi.








Master reja hududi chegarasi

Daryo bo'yi qayiq to'xtash nuqtalari



4.5 Hududda chiqindilarni boshqarish va yig'ish punktlarini joylashtirish sxemasi


Chiqindilarni chiqarib yuborish va qayta ishlash
Chiqindilar maxsus belgi qo'yilgan yuk mashinalari yordamida belgilangan joyga tashib chiqariladi.Chiqindi yig'ish jadvali har kuni tuziladi, bunda sayyohlar sonidan kelib chiqqan holda kunlar bo'yicha olib chiqish vaqti rejalashtiriladi. Yig'ilgan chiqindilar «Norin Riverside Complex" poligoniga jo'natiladi hamda u yerda qayta ishlanadigan yoki ishlanmaydigan turlarga ajratiladi.


Ekologik chora-tadbirlar
Chiqindi hajmini kamaytirish maqsadida eko-savatlar joriy etiladi, qayta ishlangan buyumlar va ko'p marta foydalanish mumkin bo'lgan materiallar targ'ib qilinadi. Turistik hududlarda eko-plakatlar hamda ma'lumot beruvchi taxtachalar o'rnatiladi.
Bolalar o'yin maydonchalari va dam olish zonalarida chiqindilarni saralab tashlash madaniyatini shakllantiruvchi bannerlar joylashtiriladi;Har yili "Toza hudud — barqaror turizm" nomli ekologik tadbir tashkil etiladi.

Manzil:

Namangan viloyati, Norin tumani,
"Norin Riverside Complex" turistik zonasidan
To'raqo'rg'on tumanidagi Yashil makon hududi gacha bo'lgan masofa 38.7 km, 57 daqiqani tashkil etadi.

Chiqindilarni yig'ish tizimi:Turistik zona hududi bo'ylab chiqindi yig'ish punktlarini bir-biridan **30–180** metr masofada joylashtirish rejalashtiriladi.
Har bir punkt turli chiqindi turlarini alohida yig'ishga mo'ljallangan saralash konteynerlari bilan jihozlanadi. Punktlar tashrif buyuruvchilar ko'p harakatlanadigan hududlar, dam olish maydonlari va asosiy piyoda yo'laklariga qulay masofada tashkil etiladi.






Chiqindi yig'ish punkti

4.6 Chiqindilarni saralash, qayta ishlash va ekologik xavfsiz boshqarish tizimi

1. Chiqindi oqimlarining hisobiy tarkibi

Chiqindi turlari ulushi



Izoh: ulushlar faoliyat boshlanishidan oldingi chiqindi auditi bilan aniqlashtiriladi

2. Chiqindilarni saralash va qayta yo'naltirish

Chiqindi oqimi	Yig'ish usuli	Keyingi yo'nalish
Organik	Yopiq alohida konteyner	Kompostlash
Plastik va metall	Sariq konteyner	Qayta ishlash
Qog'oz va karton	Quruq alohida yig'ish	Qayta ishlash
Shisha	Mustahkam yashil konteyner	Qayta ishlash
Qoldiq va sanitariya	Kulrang yopiq konteyner	Operatorga topshirish

3. Tizimni tashkil etish va logistika

Norin Riverside Complex hududida chiqindilar restoranlar, piknik maydonlari, aquapark, sport zonalari, joylashtirish obyektlari va promenadda hosil bo'lish joyining o'zida saralanadi. Markaziy ekopunkt xizmat ko'rsatish yoki avtoturargoh zonasida joylashtirilib, umumiy tashrif yo'nalishidan ajratiladi.
Organik chiqindilar ko'kalamzorlashtirish uchun kompostga yo'naltiriladi, qayta ishlanadigan materiallar esa vakolatli operatorga topshiriladi.
Olib chiqish jadvali yozgi mavsum va ommaviy tadbirlar vaqtida kuchaytiriladi. Yakuniy operator, poligon va tashish yo'nalishi ishchi loyiha bosqichida tuman sanitariya xizmati bilan belgilanadi.

4. Ekologik xavfsizlik choralari

- Sohil va ovqatlanish zonalarida qopqoqli, sizib chiqmaydigan konteynerlardan foydalanish;
- Chiqindi yig'ish joylarini suv o'tkazmaydigan asos va yuvish imkoniyati bilan jihozlash;
- Ichimlik suvi uchun qayta to'ldirish nuqtalarini tashkil etib, bir martalik plastikni kamaytirish;
- Biohojatxonalar va mahalliy oqova suvlarni tozalash tizimini turistik yuklamaga moslashtirish;
- Mavsumiy sanitariya nazorati, xodimlarni o'qitish va chiqindi hajmini muntazam hisobga olish.

Maqsad: daryo ekotizimini ifloslanishdan himoya qilish, hudud tozaligi va tashrifchilar uchun sanitariya qulayligini ta'minlash.

4.7 Ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish bo‘yicha ustuvor investitsiya takliflari

Soha	Mavjud va rejalashtirilgan holat	Ehtiyoj darajasi	Investitsiya zaruriyati
Ta'lim va bolalar xizmatlari	MFY obyektlari inventarizatsiya qilinadi; hududda bolalar maydonchasi va ekologik-ma'rifiy yo'nalish rejalashtiriladi	O'rta	Bosqichma bosqich
Tibbiy xizmat va suv xavfsizligi	Birinchi yordam punkti, qutqaruv posti va tez yordam kirish yo'lagi loyiha tarkibiga kiritiladi	Yuqori	Zarur
Madaniy va jamoat xizmatlari	Mahalla tadbirlari, hunarmandchilik, gastronomik yarmarka va ko‘p funksiyali maydonlar ko‘zda tutiladi	O'rta	Maqsadga muvofiq
Inklyuzivlik va ijtimoiy qulaylik	To‘siqsiz yo'laklar, moslashtirilgan hojatxona, onabola xonasi, soyali dam olish va navigatsiya elementlari	Yuqori	Zarur

Xulosa

Norin Riverside Complex hududi uchun birinchi navbatdagi investitsiyalar tibbiy yordam va suv bo'yidagi qutqaruv xizmatiga, shuningdek to'siqsiz muhitni shakllantirishga yo'naltiriladi — bu ehtiyojlar jadvalda "yuqori" darajali ustuvorlik sifatida belgilangan.Ta'lim va madaniy ehtiyojlar alohida yirik binolar qurish orqali emas, balki turistik hudud tarkibidagi ko'p funksiyali maydonlar — bolalar maydonchalari, ekologik-ma'rifiy yo'lak va hunarmandchilik hamda gastronomik yarmarkalar uchun mo‘ljallangan ochiq maydon orqali qoplanadi.
Bu yondashuv yangi kapital qurilish hajmini qisqartirib, mahalliy tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlashga xizmat qiladi.Aholi va tashrifchilar uchun umumiy xavfsizlik promenad va asosiy obyektlarda pandus, tekis qoplama yo'lak, moslashtirilgan sanitariya xonasi, ona-bola xonasi hamda soyali o'rindiqlardan iborat yagona inklyuziv tizim orqali ta'minlanadi.Doimiy ijtimoiy obyektlar bo'yicha yakuniy qaror xizmat radiusi va mavsumiy tashrif yuklamasi kabi ko'rsatkichlar to'liq aniqlashtirilgandan so'ng qabul qilinadi, chunki tashrifchilar oqimi mahalliy infratuzilmaga qo'shimcha yuklama berishi mumkin.

Norin Riverside Complex hududidagi sohilbo'yi master reja oilaviy turizm, rekreatsiya va xizmat ko'rsatishni rivojlantirishga yo'naltiriladi. Tashrifchilar oqimi mahalliy infratuzilmaga qo'shimcha yuklama berishi mumkin. Shu sabab investitsiyalar MFY aholisi va turistlarga birgalikda xizmat qiladigan, mavsumiy talabga mos hamda ekspluatatsiyasi tejamkor obyektlarga yo'naltiriladi.

1. Ta’lim va bolalar uchun xizmatlar

   Master reja doirasida yangi umumta'lim maktabini qurish taklif etilmaydi. Bolalar maydonchalari, ekologik-ma'rifiy yo'lak, tabiatni o'rganish burchagi hamda mavsumiy to'garaklar turistik hudud tarkibida tashkil etiladi.

2. Tibbiy xizmat va suv xavfsizligi

   Akvapark, sport va sohilbo'yi faoliyatlari sabab birinchi tibbiy yordam punkti, qutqaruv posti, kuzatuv va tezkor aloqa vositalari zarur. Tez yordam avtomobili uchun to'siqsiz kirish yo'li saqlanadi. Ushbu xizmatlar mahalliy aholiga ham foydalanish imkonini beradi.

3. Madaniy va jamoat xizmatlari

   Ko'p funksiyali ochiq maydon, kichik tadbir paviloni, hunarmandchilik va mahalliy mahsulotlar savdosi hamda gastronomik yarmarkalar mahalla tadbirlari bilan uyg'unlashtiriladi. Bu yechim yangi kapital binolar sonini kamaytirib, mahalliy tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlaydi.

4. Inklyuzivlik va ijtimoiy qulaylik

   Promenad va asosiy obyektlarda pandus, tekis qoplamali yo'lak, moslashtirilgan sanitariya xonasi, ona-bola xonasi, soyali o'rindiqlar, xavfsiz yoritish va tushunarli navigatsiya yagona tizim sifatida loyihalanadi.

4.8 Taklif etilayotgan kichik arxitektura shakllari













4.9 Daraxt va butalar ro'yxati



Oddiy grab - Carpinus betulus



Yapon spireyasi - Spiraea japonica



Buxus - Buxus sp



Fotiniya - Photinia sp.



Atirgullar - Rosa



Pumilio - Pinus mugo 'Pumilio'



Veygela - Weigela sp



Pavlovniya - Paulownia sp.

4.9 Daraxt va butalar ro'yxati



O'tkir bargli zarang - Acer platanoides



Zirk - Berberis sp.



Tol - Salix sp.



Qayrag'och - Ulmus sp.



G'arb tuyasi - Thuja occidentalis



Qizil eman - Quercus rubra



Qog'oz po'stloqli qayin - Betula papyrifera



Arizona sarvi - Cupressus arizonica


4.10 Landshaft tashkil etish tamoyili

Zonalar orasida erkin harakatlanish va o‘simliklarni parvarishlash imkoniyatini ta’minlash.

Ekish joylarini inshootlar va muhandislik tarmoqlari joylashuvi bilan muvofiqlashtirish.

Kun davomida alohida zonalarning yoritilishini hisobga olish.


Turli ko‘rish burchaklaridan manzaradorlik va kompozitsiya elementlarining uyg‘unligini ta’minlash.



Hududni inson tanasining o‘lchamlari va harakatlanish qulayligini hisobga olib zonalarga ajratish.


Ranglar uyg‘unligi va turli fonlarda tuslarning o‘zgarishini hisobga olish.

Bitta asosiy urg‘u yaratish va yagona uslubga rioya qilish.



Masofa va formula manba rasmdan saqlandi.





4.11 Taklif etilayotgan hududga kirish arkasi



Hududga kirish arkasi va kirish zonasi

Norin daryosi bo'yidagi majmuaning kirish zonasi tashrif buyuruvchilarda ilk taassurotni shakllantiruvchi asosiy me'moriy kompozitsiya sifatida loyihalangan. Arkaning oq rangdagi sodda geometrik shakli, tabiiy tusdagi vertikal elementi va ustki qismidagi ritmik panjaralari atrofdagi yashil landshaft bilan uyg'unlashib, majmuaning zamonaviy qiyofasini ifodalaydi.

Markaziy nazorat posti va shlagbaumlar hududga kirish-chiqishni tartibga soladi. Daraxt va butalar bilan ko'kalamzorlashtirilgan yo'l chetlari hamda yoritish ustunlari esa majmua sari qulay va aniq yo'nalish yaratadi. Kirish arkasi hududning tanib olinadigan ramziy belgisi bo'lib, uning umumiy me'moriy-landshaft yechimini yaxlitlashtiradi.









4.12 Norin Riverside Complex hududida taklif etilayotgan lotlar tasnifi




